



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

IMOM BUXORIY SABOQLARI

Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal



25
2000-2025 YOSHDA
JURNAL

2025/2



www.bukhari.uz

№2
2025

IMOM BUXORIY SABOQLARI

Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal



Batafsil BUKHARI.UZ saytida

27-may kuni Samarqand shahrida “Islom dunyosining ma’naviy merosi va madaniy ifodalari: xattotlik, musiqa, she’riyat va hamjihatlik” mavzusida xalqaro forum bo’lib o’tdi. Samarqand – 2025-yilda Islom dunyosining madaniy poytaxti deb e’lon qilinishi munosabati bilan ICESCO tashabbusi bilan tashkil etilgan nufuzli anjumanda a’zo davlatlarning madaniyat ishlari vazirlari, xalqaro tashkilot va muassasalar rahbarlari, O’zbekiston hukumati vakillari qatorida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori Shovosil Ziyodov ham ishtirok etdi.

TAHRIR HAY’ATI

- Akmal SAIDOV – yuridik fanlari doktori, akademik
 - Shayx Nuriddin XOLIQAQAZAR – O’zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy
 - Firdavs ABDUXOLIQOV – Islom sivilizatsiyasi markazi direktori, san’atshunoslik fanlari doktori
 - Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor
 - Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor
 - Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor
 - Baxtiyor TURAYEV – falsafa fanlari doktori, professor
 - Baxtiyor KARIMOV – falsafa fanlari doktori, professor
 - Ilhom SAIDOV – tarix fanlari doktori, professor
 - Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor
 - Zohidullo MINAVVAROV – siyosiy fanlar doktori, professor
 - Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori
 - Nodirjon ABDULAHATOV – tarix fanlari doktori
 - O’ktambek SULTONOV – tarix fanlari doktori
 - Baxtiyor ERGASHEV – tarix fanlari doktori
 - Amriddin BERDIMURODOV – tarix fanlari nomzodi
 - Mahmud NASRULLAYEV – tarix fanlari nomzodi, dotsent
 - Sarvar ABDULLAYEV – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
 - Shahzod ISLOMOV – tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori
 - Otabek MUHAMMADIYEV – tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim
-
- Ashirbek MO’MINOV – tarix fanlari doktori, professor (L.N. Gumilev nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti)
 - Devin DeWeese – Indiana universiteti professori, yozuvchi (AQSH)
 - So’nmez KUTLU – Anqara universiteti professori, ilohiyotchi (Turkiya)
 - Ingeborg BALDAUF – Gumbold nomidagi Berlin universiteti professori (Germaniya)

IBXITM Ilmiy kengashining 2025-yil 26-fevraldagi 1-sonli yig’ilish qarori bilan nashrga tavsiya qilindi.



MUASSIS:

O’zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
**IMOM BUXORIY XALQARO
ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

Bosh muharrir:
Shovosil ZIYODOV

Muharrir o’rinbosarlari:
**Otabek MUHAMMADIYEV,
Sanjarbek DJUMANOV**

Musahhihlar:
**Anvar BOBOYEV,
Asliddin MUSTAFOYEV**

Sahifalovchi-dizayner:
Muhammadiqbol SHUKUROV

**Azim ZOYIROV,
Rustam MAHMUDOV**
olgan suratlardan foydalanildi.

*Jurnal O’zbekiston
Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi
Oliy attestatsiya
komissiyasining ilmiy
jurnallar ro’yxatiga kiritilgan.*

**MAQOLADA KELITIRILGAN
MA’LUMOTLAR UCHUN
MUALLIF MAS’UL.**

Шовосил ЗИЁДОВ. Ўзбекистонда маънавий ислохотларнинг янги босқичи бошланмоқда (Акс-садо).....2

ВАТАНИМИЗ ТАРИХИ

Манзила ҚУРБОНОВА, Шавкат БОБОЖОНОВ. Ялдо туни – қишки қуёш байрами.....5

Маҳмуд НАСРУЛЛАЕВ, Шербек РАВШАНОВ, Одил ЭРГАШЕВ. Кўксарой тарихига чизгилар.....9

Ҳайдар ЮЛДАШХОДЖАЕВ. Марказий Осиёда манғитлар ҳукмронлиги даври: Амир Шоҳмурод ислохотлари.....13

Dilora RADJABOVA. Rossiya sharqshunosligida Qur’oni karimning dastlabki o’rganilishi tarixidan (tarixshunoslik tahlili).....16

Mastura SIDDIQOVA. Samarqanddagi Go’ri Amir maqbarasining tarixiy ziyoratgoh sifatidagi o’rni.....20

Otabek ALLAYAROV. Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi hamda uning Samarqand viloyatidagi faoliyati.....23

Усмонхон МУХАММАДИЕВ. Носуриддин Самарқандийнинг Самарқанд фикҳ мактабида тутган ўрни.....26

Rustambek NARZIYEV. Samarqand viloyat ko’zi ojizlar maxsus kutubxonasi tarixi.....30

Парвина РАҲМОНОВА. Аштархоний ҳукмдорларнинг Самарқандда амалга оширган ободончилик ишлари.....33

Sirojbek ALLANAZAROV. Xorazm Xalq Sovet Respublikasida xalq maorifi masalalari.....36

Анвар ЮСУПОВ. Туркистонда Афросиёб мероси.....39

АЖДОДЛАР ИЛМИЙ МЕРОСИ

Gulchehra NAVRO’ZOVA. Bahouddin Naqshband ruboiylarida o’zlikni anglash masalasi.....45

Qobiljon ZOHIDOV. O’rta asr adabiyotida islom tarixi mavzusi tahlili.....48

Burxon AXMEDOV. Alloma Abu Bakr Jassos hayoti va ilmiy unvonlari.....53

Mu’tabarxon MADAYEVA. Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida arab leksik qatlamining tahlili.....57

Жаҳонгир НЕЪМАТОВ. Мусхафдаги вақф аломатларининг пайдо бўлиши ва ривожланиши тарихи.....59

Bahodir MIRZAYEV. Hadis qabul qilib olish va yetkazishda Abu Ja’far Mustag’firiy qo’llagan so’zlar tahlili.....61

Абдувоси ШОНАЗАРОВ. Имом Бухорийнинг “Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ” асарининг ислом илмлари ривожига кўшган ҳиссаси.....63

Қодирхон МАҲМУДОВ. Абу Ҳотим Муҳаммад ибн Ҳиббоннинг “Саҳиҳ”идаги фикҳий қарашлари.....67

Mahmud ABDURAXMONOV. Abu Dovudning “Sunan” asarida kelgan hadis atamalari tahlili.....70

Абдуғулом МЕЛИБОЕВ. Маҳбубийлар оиласи илмий мероси.....74

Nurmuhammad MATKARIMOV. Tasavvuf tarixidagi unutilmas shaxs: Najmiddin Kubro.....78

НОДИР МАНБАЛАР

Алоуддин НЕМАТОВ. Имом Мотуриддиннинг намозда “Басмала”ни айтиш ҳақидаги фикҳий қарашлари.....81

Nodir QOBILOV. Imom Buxoriyning “Sahihul Buxoriy” asarida qo’llagan ado lafzlarining istilohiy tahlili.....84

Йўлдошхон ИСАЕВ, Ихтиёр ҚУШШАҚОВ. “Сулосиётул Бухорий”нинг нодир қўлёзма нусхалари.....86

ИСЛОМ ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН

Хабибулло САГДИЕВ, Баходир БОТИРОВ. Исломнинг дунёда тинчликни сақлашдаги ўрни.....89

Зиёдилла ЗИНАТУЛЛАЕВ. Араб халифалиги девон тизимининг шаклланиш босқичлари.....93

Мухаммадсиддиқ УСМОНОВ. Амал ва қалб уйғунлиги.....96

Отабек БАХРИЕВ. Абдулҳай Лакнавий фикҳий меросининг ўрганилиши.....98

Бобурмирзо БОТИРОВ. XI-XIII асрларда Мовароуннаҳрда инсон ҳуқуқлари тушунчаси.....100

Тоҳир ВОХИДОВ. Араб тили ва унинг лаҳжалари.....106

ИЖТИМОЙ ИНСТИТУТ

Habibullo SADIBAQOSEV. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Xitoyning geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyati.....109

Xusniddin AXMEDOV. Bugungi diniy-ma’rifiy islohotlar – davlat siyosatining din sohasidagi ustuvor yo’nalishi sifatida.....112

Suhrob BO’RANOV. Islom omilining “Tolibon” harakati paydo bo’lishiga ta’siri.....115

Одилжон ЭРНАЗАРОВ. Жамиятда диннинг инсон-парварлик моҳиятини ёритиш диний соҳадаги давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида.....119

Жасур САВРИЕВ. Зарафшон воҳасининг зиёратгоҳ ва қадамжоларида туризм хизматларини ривожлантириш истиқболлари.....121

Matluba YULDASHEVA. Milliy mentalitetni – g’oyaviy-mafkuraviy va ijtimoiy-madaniy hayotdagi o’rni.....124

Bobur MELIQULOV. O’zbekiston Respublikasi milliy siyosatining huquqiy asoslari.....126

ФАЛСАФИЙ МУШОҲАДАЛАР

Ro’zimuhammad TO’XTASINOV. Ibn Sinoning tafsir ilmidagi falsafiy qarashlari (Ixlos surasi misolida).....130

Jobir ELOV. Imom Buxoriyning “Al-Adab al-mufrad” asarida ilm va adab tushunchalarining falsafiy tahlili.....133

Pulotjon QAXOROV. Axloqiy estetik qadriyatlarining inson qadri va ma’naviyati masalalarida o’zaro ta’siri.....139

Руфат АХМЕДОВ. Муҳаммад Закариё Розийнинг фалсафий антропологияси.....141

ЁШЛАР – КЕЛАЖАГИМИЗ

Аббос ДЎЛАНОВ. Янги Ўзбекистон ёшларининг бунёдкорлик салоҳияти.....144

МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ

Maftuna NAMOZOVA. Radikallashuv bosqichlari va darajalari.....147

БИР ҲАДИС ШАРҲИ

Икки афзал ҳислат.....150



BAHOUDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA O'ZLIKNI ANGLASH MASALASI

*Ushbu maqolada Bahouddin Naqshband ruboiylari jamlangan "Ruboiyoti Xoja Naqshband" va "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband" asarlari asosida o'zlikni anglash tushunchasi mazmun-mohiyati tahlil qilingan. **Tayanch so'zlar:** Bahouddin Naqshband, ruboiy, nafs, o'zlikni anglash.*

*The article analyzes the content and essence of the concept of self-awareness based on the sources "Rubaiyoti Khoja Naqshband" and "Maqomoti Khoja Bahauddin Naqshband", which are collections of rubais by Bahauddin Naqshband. **Keywords:** Bahauddin Naqshband, rubles, Allah, nafs, self-knowledge.*

*В статье анализируется содержание и сущность понятия самосознания на основе источников "Рубайёти Ходжа Накибанд" и "Мақомоти Ходжа Бахауддина Накибанд", которые представляют собой сборники рубаи Бахауддина Накибанд. **Ключевые слова:** Бахауддин Накибанд, рубоий, Аллах, нафс, самопознания.*

Kirish. O'zlikni anglash inson kamoloti uchun muhim masaladir. O'zini anglagan inson jamiyatda o'z o'rni, vazifalari, qadr-qimmatini biladi va shunga munosib amal qiladi. Antik davr faylasuflaridan hozirgi kungacha bu masala dolzarb falsafiy muammodir. Mustaqillik davrida O'zbekistonda falsafiy masalalarni tadqiq etishda diniylik va dunyoviylikka uyg'un munosabatda bo'la boshlandi. Tasavvuf falsafasida o'zlikni anglash masalasi yaxshi o'rganilgan. Bu ta'limotda nafs va uni tarbiyalash masalasi asosiy muammodir. Naqshbandiya ta'limotining asoschisi Bahouddin Naqshbandning ruboiylarida o'zlikni anglash masalalari juda go'zal tavsiflangan. Bu ruboiylarni mukammal tadqiq etish dolzarb masaladir.

Adabiyotlar tahlili. Manbalar [1,4,5,21,23,25] va tadqiqotlarda [7-14,20] Bahouddin Naqshband ruboiylari borligi haqida ma'lumot berilgan bo'lsa-da, ularning miqdori oz ekani ta'kidlangan. Sayfiddin Sayfulloh Bahouddin Naqshbandning besh ruboiysi borligini aniqlab, maxsus risola yozgan [22]. Ergash Ochilov ruboiylar jamlangan asarida Bahouddin Naqshband ruboiylarini kiritgan [6]. Biz tadqiqotimiz davomida Bahouddin Naqshband ruboiylari jamlangan asarni topdik [1]. Undagi arab grafikasida yozilgan fors tilidagi ruboiylarini kirillchaga o'girdik [3]. Manbadagi ruboiylarni tasavvufiy-falsafiy tahlil etib, maqolalarimizda yoritdik [15-19].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada falsafa tarixiga oid manbalar tahlilining asosiy usuli bo'lgan tarixiylik va mantiqiylik talablariga asosan o'zlikni anglash tushunchasini antik davrdan boshlab to Naqshbandiya ta'limotining asoschisi Bahouddin Naqshband davrigacha bo'lgan g'oyalar tahlil etildi. Shuningdek, Bahouddin Naqshbandning "Ruboiyoti Xoja Naqshband" asaridagi o'zlikni anglashga doir ruboiylarini germentevik uslub asosida tushuntirishga harakat qilingan. Bundan tashqari, "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband" asaridagi Bahouddin Naqshband ruboiysini ontologik jihatdan tizimli tahlil etish asosida o'zlikni anglashning yangi qirralari ochib berilgan.

Tahlil va natijalar. Inson kamolotining asosiy mezonlaridan biri – uning o'zligini anglashidir. Delfadagi Appolon ibodatxonasi devorlariga o'yib yozilgan va an'ana bo'yicha yetti yunon donishmandlaridan biri – Xilonga tegishli deb hisoblangan "O'zligingni angla!" shiori qadimgi antik davr falsafasidan hozirgi kungacha faylasuflar uchun o'zak masala bo'lib kelmoqda. Eramizdan avvalgi V asrda Protogor, "inson barcha narsalarning o'lchovidir", degan fikrni ilgari surgan bo'lsa, Suqrot uchun "o'zligingni angla" hikmati donishmandlikning qoidasiga aylandi.

Sitseron "Falsafa Falesdan boshlanadi, u birinchi edi", deb ta'kidlagan. Yetti donishmandning yetakchisi bo'lgan Fales "Eng qiyin narsa nima?", degan savolga "O'zni anglash" [27:10], deb javob bergan. Faylasuf Xilon, "O'zingni bilgil va sen Xudolarni va koinotni bilib olasan" [24:29], degan.

Inson ruhiy quvvatining ramziga aylangan Suqrot shunday degan: "Kim o'zini bilsa, uning uchun nima foydali ekanini biladi, xuddi shuningdek, nimaga qodir va qodir emasligini tushunadi. Biladigan narsalari bilan shug'ullanib, o'z ehtiyojlarini qondiradi va baxtiyor yashaydi, bilmagan narsalariga qo'l urmay, xatolarga yo'l qo'ymaydi va baxtsizliklarni chetlab o'tadi. Shu tufayli u boshqa odamlar bahosini ham biladi va ularga tayanib, foyda oladi va o'zini bebaxtliklardan saqlaydi" [24:62].

Islomda ham "Kim o'zligini tanisa, Robbini taniydi" degan hadis mavjud. Tasavvuf ta'limoti "Xudshunosi, xudoshunosi ast", ya'ni "O'zlikni tanish, anglash, Xudoni tanishdir" degan tamoyilga asoslanadi. Imom G'azzoliy "Allohni anglashdan avval o'zlikni anglamoq joiz", degan. Shuningdek, u: "Afsuski, faqat insongina o'zi haqida haqiqiy bilimiga ega emas. Biz o'zimizni faqat sirdan – u yoki bu qilmishimiz va tashqi qiyofamiz orqali bilamiz. Ruhiiy mohiyatimizni bilishga urinmaymiz", deb ta'kidlangan. Bashariyat mutafakkiri Jaloliddin Rumiy: "Ko'zni yumgil, ko'zga aylansin ko'ngil", deb insonni o'zligini anglashga chaqirgan.

O'zlikni bilishning mohiyati nima? Masalan, ruchka. Uni qo'lga olib o'rganib, nimaga lozimligini bilamiz. Uning joyi oshxonada, pichoq-qoshiqlar yonida emas, stolimiz ustida qog'oz-qalamlarimiz bilan ekaniga aqlimiz yetadi. Undan ilm tahsili, ish davomida yozish jarayoni uchun foydalanamiz. Ruchka o'z o'rnida tursa, o'rinli foydalanilsa, o'z qadr-qimmatini topadi. Keraksiz joyda bo'lsa, oyoq ostiga tushadi va bolalar qo'lida devor, eshik-romlarda ortiqcha va keraksiz chiziqlarni paydo qiladi. Inson ham o'zining kimligi, nima uchun bu dunyoga kelgani, o'z imkoniyatlarini bilsa, o'z qadr-qimmatiga munosib ish qiladi, manzil-makon topadi, o'zgalarga foydali va kerakli bo'ladi.

Insonning o'z-o'zini tanishi, anglashi, eng avvalo, inson zotining mohiyatini bilishidir. Bu inson ma'naviyati, sha'ni, qadr-qimmatini, obro'-e'tibori, or-nomusi orqali namoyon bo'ladi. O'z-o'zini anglash insonga hayotining ma'no-mazmuni, maqsadini tushunishga yordam beradi. Inson, eng avvalo "Men kimman?", "Bu yorug' dunyoga nima uchun keldim?", "Menga ato etilgan buyuk ne'mat –hayotimni nimalarga safarbar etmog'im lozim?" degan savollarga javob izlab, o'z-o'zini anglashi va jamiyatda o'z o'rnini topishi lozim.

Hazrat Alisher Navoiy: "El netib topqay menikim, men o'zimni topmasam", "O'z vujudingni tafakkur aylagil, har ne istarsen o'zingdan istag'il", kabi o'gitlari bilan insonni o'zligini anglashga chorlagan.

O'z-o'zini anglash jarayonining avvalida inson o'zini hayvon emas, o'simlik emas, tosh-kesak, jonsiz ma'dan emas, balki Hazrati inson ekanini anglashi lozim. Odam hayvonot olamidani ongi, tafakkur qila olishi, nutqi, mehnat qilish va mehnat qurollarini yarata olishi, ijod qudrati bilan ajralib turadi.



Insonning insonligi, uning hayvondan tub farqi ayni o'z-o'zini anglashdadir. Ya'ni o'zini kimligi yoki nimaligi, nimalarga va qanday ishlarga qodirligini bila olishidan boshlanadi.

O'z-o'zini anglash jarayonida inson o'zini butun borliqdan ajratib, unga "o'zga ko'z" bilan, chetdan qaraydi, o'zi qilayotgan har bir ishi, o'tkazgan har bir damini sarhisob qiladi. O'z-o'zini anglash jarayonida inson o'z qadr-qimmatini biladi, unda o'ziga ishonch hosil bo'ladi, xarakteri shakllanadi. Inson o'z-o'zini anglasa, faol bo'ladi, chunki u "o'z o'rnida" bo'ladi. O'z-o'zini anglash jarayonida bilish obyekti ham, subyekti ham insonning o'zi bo'ladi. Inson o'z-o'zini anglash jarayonining quyidagi shakllari mavjud: Birinchi, dastlabki shakli – o'z-o'zini his qilish, ya'ni kishi o'zini, o'z jismini qurshab turgan dunyodagi predmetlar, hodisalardan farqini biladi. Ikkinchi shakli – odam jamiyatdagi o'z o'rnini, bu jamiyat a'zosi, aniq faoliyat egasi, ma'lum ijtimoiy guruhga mansubligini bilishdir. Uchinchi, yuqori shakli – o'zini fuqaro sifatida anglashi, o'z ishi uchun mas'uliyatni his qilishi, o'z faoliyatini nazorat qilishi, o'z-o'ziga baho bera oladigan, o'z-o'ziga hisob bera oladigan shaxs darajasiga yetishidir.

O'z-o'zini noto'g'ri anglash insonni, bir tomondan, o'ziga ortiqcha baholash va kibru havoga berilishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, o'ziga past baholash-o'zidagi iqtidor, iste'dodni ocha olmay, faolligi yetarli bo'lmaslikka, passiv, umidsiz, inqiroz holatiga tushiradi. Bu ikki holat ham inson kamolotiga yomon ta'sir etadi. Shuning uchun hazrat Alisher Navoiy aytgan edilar:

To hirsu havas xirmani barbod o'lmas,
To nafsu havo qasri baraftod o'lmas.
To zulmu sitam joniga bedod o'lmas,
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.

Insonda o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini nazorat etish, o'z-o'zidan hisob olish muntazam davom etadigan jarayon bo'lganida inson me'yorda yashaydi. Chunki: "Odami nusxai jomi'a turur, ondog'kim, malakiy sifatleri bor turur va sab'iy va bahimiy sifatlardan ham xoliy ermastur" [25:344]. Xoja Ahror Valiy bu iboralari bilan insonda ham malakiy, farishtalarga xos sifatlar mavjud, shu bilan birga, yirtqich va boshqa to'rt oyoqli hayvonlar kabi nafs illatlari ham borligini ta'kidlab, insonni "nusxai jami'", ya'ni borliqdagi bor narsalarni o'zida jam etgan nusxa demoqda.

Bahouddin Naqshbandga oid bo'lgan asosiy manba Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Alining "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband" asarida bu ulug' zotning quyidagi ruboiylari keltirilgan:

Hech mo ne va hech mo kam ne,
Az pai hech hech mo g'am ne.
Janda bar pusht, pusht go'riston,
Gar bimoreh hech motam ne [2:85].

Mazmuni:
Hech narsamiz, hech narsadan kamimiz yo'q,
Hech narsaning ketidan g'amimiz yo'q.
Orqada jandayu, go'riston ortda,
Gar o'lib qolsak, hech motam ham yo'q.

Bahouddin Naqshbandning bu ruboiylari barcha manbalarda tan olingan. Uning falsafiy tahlili insonga oid quyidagi qarashlarni namoyon etadi, ya'ni ruboiyda "hech" degan so'z bir nechta marotaba takrorlanmoqda. Ontologik jihatdan tahlil qilganimizda inson borligi butun koinot va borliqlar tizimida juda kichik zarra bo'lib, hech narsadek ko'rinadi. Shaklan qaraganimizda megaolam, galaktika va metagalaktikaga qiyoslaganimizda inson borligi kichik, juda ham kichik zarradir. Ammo, suratda, shaklda, zohiran kichik olam bo'lgan inson Bahouddin Naqshband ta'rifi bilan hech narsadan kam emas. Chunki inson jam etuvchi borliqdir. Butun ilohiy, ruhiy,

ma'naviy, moddiy olamlar insonda mujassamdir. Zohiran Kichik Olam bo'lgan inson botinan Katta Olamdir.

Bahouddin Naqshband ta'limotini jahoniy tariqatga aylantirgan Xoja Ahror Valiy o'zining "Risolayi Havroiya" va "Fiqarotul orifiy" asarlarida yozilgan quyidagi ruboiysida insonni mukammal jam etuvchi borliq ekanini yozgan:

Ey nusxai nomai ilohi, ki tui,
Ey oinai jamoli shohi, ki tui.
Berun zi tu nest har chi dar olam hast,
Dar xud bitalab har on chi xohi, ki tui [26:24,69].

Mazmuni:
Ey ilohiy nomaning nusxasi sensan,
Ilohiy jamolning ko'zgusi sensan.
Olamda mavjud bo'lgan hamma narsa senda bordir,
Nimani istasang o'zingdan izlagil.

Bahouddin Naqshband ta'limotidagi "Safar dar Vatan" – "Vatanda safar" tamoyilida inson botiniga safar qilish va botinni poklagan insonda butun olamga ta'sir etuvchi quvvat borligi haqida fikr yuritiladi. Bahouddin Naqshbandning "Hech mo ne" degani suratda biz hech, ya'ni kichik bo'lsak-da, "Hech mo kam ne" – hech narsadan kam emasmiz deganidir. Bu bilan inson botinan Katta Olam ekanini va borliqdagi barcha tizimlar mohiyati insonda mavjudligi tan olingan.

Bahouddin Naqshband ruboiysining birinchi qatori ko'pincha tarjimada bizning hech nimamiz yo'q, lekin biz hech nimadan kam emasmiz ma'nosida tahlil etilgan. Bu falsafiy tahlil bizning fikrimizcha, ancha tor ma'noni bildiradi. Bu tahlillar ruboiyning ikkinchi qatorining mazmuniga ancha yaqqildir. Ruboiyning ikkinchi qatorida hech narsa uchun bizda g'am yo'q iborasi orqali Bahouddin Naqshband olamning foni, ya'ni o'tkinchi va boqiy, ya'ni abadiy ekaniga ishora qiladi. Hech uchun bizda g'am yo'q deyish bilan alloma moddiy olamdagi mol-mulk, dunyo, mansab va boylik o'tkinchi ekani, ular uchun g'am yeyish, umrni baxshida etish arziyasligini ta'kidlamogda. Shuningdek, dunyoparastlik, mol-mulkka bog'lanish, mansab uchun kurash insonning oxirati va abadiy hayoti uchun foyda bermasligi, keraksizligini aytmoqda. Inson hayotining mazmuni dunyoga bog'lanishda emas, balki dunyodagi imkoniyatlardan ezgu amallar qilib, boqiy hayotda abadiy qolish uchun foydalanish to'g'riligini ta'kidlamogda.

Bahouddin Naqshband ruboiysining ikkinchi qatoridan falsafaning borliqqa oid qarashlarining ikkinchi tomoni ma'lum bo'ladi. Borliq foni olam va boqiy olamdan iboratdir. Moddiy olam foni bo'lib, uning imkoniyatlari ezgulikka sarflansa, boqiylikka insonni bog'laydi. Bahouddin Naqshbandning bu fikrlari ham Jaloliddin Rumiyning "Devoni Shams" asaridagi quyidagi misralar bilan uyg'undir:

Zotedu, sifotedu, gahe Arshu, gahe farsh,
Dar asl baqoedu, munazzah zi fanoed.
Mazmuni:
Ilohiy zot, sifatarsiz, Arshsizu goho farshsiz,
Aslida boqiy, abadiysizu foniy emassiz.

Bahouddin Naqshband ham insonni moddiylikka bog'lanmasdan berilgan hayotni, umrni ezgulikka sarflab, abadiy yashashga undamoqda.

Bahouddin Naqshband ruboiysining uchinchi qatorida janda ortda iborasi orqali o'zida bor bo'lgan mol-mulk mehri qalbida emasligi, unga bog'lanmaganini ta'kidlab, orqada qabriston borligini aytmoqda. Bu misra orqali inson tana jihatidan o'lishi va qiyomatgacha barzax olami bo'lgan qabrda qolishini tushuntirib, mol-mulk qabrda insonga hamroh bo'lmasligini ta'kidlamogda. Ammo o'lim haq ekani, tananing foniyligi, ruhning abadiyligi masalasiga e'tibor berib, abadiy hayot uchun zarur bo'lgan oxirat g'amini yeyish kerakligiga insoniyat diqqatini qaratmoqda.



Ruboiyning oxirgi to'rtinchi qatori o'lim motam emasligi, aksincha inson tanasi orqali ruhni to'sib turgan barcha pardalar ko'tarilib, uning bemalol parvozig va ilohiy mohiyat bilan bog'lanishga imkon tug'ilishi masalasi e'tiborga olinmoqda. O'lim va hayot masalasi Bahouddin Naqshband fikricha, bir holatdan ikkinchi holatga ko'chishdir. O'lish – bu rihlat qilish, ya'ni foniy olamdan boqiy olamga o'tishdir. Inson sharaf bilan bu foniy hayotdan boqiy hayotga o'tishi uchun tanadagi, vujudidagi barcha imkoniyatlarini faqat ezgulikka safarbar etgan bo'lishi lozim.

Bahouddin Naqshbandning ruboiylari jamlangan manba "Ruboiyoti Xoja Naqshband" asaridir. Bu asarda ruboiylar raqamlar bilan belgilangan. Unda ruboiylar fors tilida arab grafikasida yozilgan bo'lib, Muhammad Sodiqli Qusuriy tomonidan urdu tilida sharhlangan.

"Ruboiyoti Xoja Naqshband" asarida 101-raqamli ruboiysida ham inson hayotining mazmuni "hech" iborasi orqali quyidagicha tavsif etilgan:

دنیا چه بود کثیر مشوش بودن

و ز بهر دو روزه عمر ناخوش بودن

ما هیچ جهان هیچ و غم و شادی هیچ

خوش نیست برای هیچ ناخوش بودن

Dunyo chi buvad? Kasiri mashush budan,

V-az bahri du ro'za umr noxush budan.

Mo hech, jahon hechu g'amu shodi hech,

Xush nest baroi hech noxush budan [1:142].

Mazmuni:

Dunyo nedur? Ko'p tashvishli bo'lish,

Ikki kunlik umr uchun xafa bo'lish.

Biz hechmizu, jahon hechu, g'am va shodlik hech,

Xush emasdir hech uchun xafa bo'lish.

Bahouddin Naqshbandning bu ruboiysidan ma'lum bo'ladiki, inson hayoti uchun dunyo, mol-mulk va ularga bog'lanish behuda tashvishdir. Chunki bu moddiy olamda inson qisqa muddatda yashaydi. Moddiy olamda yashagan davr butun inson hayotiga nisbatan hech nimadir. Bu jahon va undagi shodligi g'am ham o'tkinchidir. Shuning uchun Bahouddin Naqshband bu qisqa muddatli hayotda noxush bo'lishni qoralaydi. U shukronalik va ezgulik bilan yashash kerakligini ta'kidlab, bu olam oxirat uchun ziroat joyi ekanini aytadi.

Manbadagi 45-raqamli ruboiyda Bahouddin Naqshband o'zini anglashga harakat qilganini quyidagicha tavsiflagan:

از هیچ کسی خویشتن بیخبرم

از هیچ سگی به نیم الا بترم

هر چند بحال خویش مینگرم

یک حبه نیرزد ز قدم تا بترم

Az hech kasii xeshtan bexabaram,

Az hech sage beh nayam, illo badtaram.

Har chand ba holi xesh menigaram,

Yak habba naarzad zi qadam to ba saram [1:86].

Mazmuni:

O'zimni hech kim emasligimdan bexabarman,

Hech bir itdan yaxshi emasman, illo yomonroqman.

Qancha o'zimning holimga qarasam,

Qadamimdan boshimgacha bir habga ham arzimasmam.

Ruboiy mazmunidan ma'lum bo'ladiki, Bahouddin Naqshband kamolotining siri – u kishi hamisha o'zini nazorat qilganidadir. U kishi butun borliqqa o'zini qiyoslab, har bir mavjudotning foyda keltirishini aniqlagan. Ruboiyda o'zini

itdan ham past ekanini ta'kidlagan. Hazrat Alisher Navoiy, bizning fikrimizcha, "Lisonut tayr" asarida faqru fano vodiysini tavsiflaganida Bahouddin Naqshbandning o'zini itning oyoq izidan ham kamtar tutganini yozishda shu ruboiydan ta'sirlangan bo'lishi mumkin.

Asardagi 51-ruboiyda o'zlikni anglash uchun naqshbandlarga xos talablar quyidagicha yoritilgan:

خودرا بیشکن که بت شکستن این است

واز خود بگسیل که ز قید رستن این است

در گوشه خاطر عزیزان جا کن

در مذهب ما گوشه نشستن این است

Xudro bishikan, ki but shikastan in ast,

V-az xud bigusel, ki zi qayd rastan in ast.

Dar g'ushay xotiri azizon cho kun,

Dar mazhabi mo g'usha nishastan in ast [1:92].

Mazmuni:

O'zingni sindirgin, butni sindirish shudir,

Va o'zingdan kechg'in, kamolning belgisi shudir.

Azizlar xotirining bir go'shasidan joy ol,

Xilvatninishlik bizning mazhabimizda shudir.

Ruboiyda inson nafsini Bahouddin Naqshband butga tenglashtiryapti. Nafsiga qul bo'lgan kishini butparast deyapti. Nafsidan kechgan, ammora nafsining ustidan g'alaba qilgan kishi kamolotga yetgan inson hisoblanishini tavsiflamogda. Ruboiydan ma'lum bo'ladiki, inson o'zligini anglashi uchun o'z nafsini tanishi lozim. Nafsini tarbiyalagan kishilar ezgu ishlari bilan yaxshilar qalbidan joy oladi. Naqshbandiya ta'limotida "Xilvat dar anjuman" tamoyili asosida xolis "Dil ba Yoru dast ba kor" shiori asosida mehnat qilish lozim.

"Ruboiyoti Xoja Naqshband" asaridagi 56-raqamli ruboiyda nafsni sindirish, kibru havoni yo'qotish inson o'zligini anglashining asosi ekanini quyidagicha yoritilgan:

تا از غمت دلتنگ داریم ای دوست

از غیر تو در بسته داریم ای دوست

گفتی که من با شکستگان نزدیکم

ما نیز دل شکسته داریم ای دوست

To az g'amat diltang dorem, ey D'yst,

Az g'ayri Tu darbasta dorem, ey D'yst.

Gufti, ki man bo shikastagon nazdikam,

Mo niz dil shikasta dorem, ey D'yst [1:97].

Mazmuni:

Sening g'amingdan dilda dardimiz bor, ey Do'st,

Sendan o'zga barcha eshiklar bog'liqdir, ey Do'st.

Aytdikim men singanlar bilan yaqinman,

Biz ham siniq qalb egasimiz, ey Do'st.

Bu ruboiyda insonni o'zligini anglashi uchun manmanlik, kibru havo kabi illatlardan qutulish lozimligi ta'kidlanmogda. Chunki kibru havo ilohiy nur va fayz eshiklarini bog'laydi. Nafs istaklari ustidan g'olib chiqqan qalbi siniq kishi o'zligini anglay oladi. Naqshbandiya ta'limotidagi 11 tamoyil bu maqsadga erishishda yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Bahouddin Naqshband ruboiylari tahlili asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Inson o'zligini anglashi uchun nafsini tanishi lozim.

Nafs istaklari ustidan g'alaba qilish uchun mudom o'z niyati, fikru xayoli va amallarini nazorat qilishi lozim.

Ammora nafsidan g'olib chiqqan, nafs istaklarini tarbiyalagan, kibru havoni yo'qotgan kamtarin inson o'zini anglay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. رباعیات خواجہ نقشبند مرتب و شارح محمد قصوری اردو بازار لاہور الدینیہ پبلیکیشنز ۱۹۹۸ ۱۸۴ صفحہ
2. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. – T.: O'zbekiston, 2019. – 335 b.
3. Bahouddin Naqshband. Ruboiylar. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2023 – 84 b.

4. Bahouddin Naqshband. (Manbalar tahlili). – T.: Sano standart, 2019. – 256 b.
5. Bahouddin Naqshband. Hikmatli so'zlar. Bahouddin Nakshband. Words of wisdom. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2020. – 52 b.
6. Donishmandlar tuhfas. Ruboiylar. – T.: O'zbekiston, 2009. – B.277-278.



7. Navro'zova G.N. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi. – T.: Fan, 2005. – 233 b.
8. Navro'zova G.N. Naqshbandiya – kamolot yo'li. – T.: Fan, 2007. – 189 b.
9. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband. (Risola). – T.: “Abu matbuot-konsalt” nashriyoti, 2011. – 24 b.
10. Navro'zova G.N. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosi. – T.: Fan, 2021. – 244 b.
11. Navruzova G.N. Bahouddin Naqshband – the seventh pir of Bukharai Sharif (Noble Bukhara). Islom tafakkuri (Maxsus son), 2020. – B.5-8.
12. Navro'zova G.N. Shukronalik – inson kamolotining asosi. //Imom Buxoriy saboqlari. 2023 yil 3-son. – B.121-123.
13. Navro'zova G.N. Naqshbandiya ta'limotida rizo tushunchasi. // Islom tafakkuri. 2022 yil 2-son. – B.39-46.
14. Navro'zova G.N. Buxoroi sharifning yetti piri halol tushunchasi xususida. // Imom Buxoriy saboqlari. 2022 yil 4-son. – B.51-52.
15. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband ruboiylarida insonning ruhiy muvozanati masalasi. Interpretation and researches. Volume 1 issue 22. 30.12.2023. – P.171-176.
16. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband ta'limotida shubhat tushunchasi. Interpretation and researches. Volume 2 issue 1(23). 30.01.2024. – P.19-22.
17. Navro'zova G.N. Naqshbandiya: Naqshdan benaqsh sari yo'l. Interpretation and researches. Volume 2 issue 8(30). 10.05.2024. – P.219-225.
18. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband ma'naviy merosining yangi qirrasini. // Islom tafakkuri. 2024 yil 1-son. – B.3-7.
19. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband ruboiylaridagi inson tushunchasining falsafiy tahlili. // Islom tafakkuri. 2024 yil 2-maxsus son. – B.49-53.
20. Navro'zova G.N. Naqshbandiya – hushyorlik yo'li. – T.: Fan, 2024. – 184 b.
21. Risolaho piron va payravoni tariqati Naqshbandiya. – Dushanbe, 2017. – 456 b.
22. Sayfiddin Sayfullah. Hazrati Naqshband ruboiylari. – T.: Toshkent islom universiteti. 2009. – 20 b.
23. Salohiddin ibn Muborak al-Buxoriy.(1410) Anis at-tolibin va uddat as-solikin. Buxoro muzeyi 27772/11 qo'lyozma, 168 v.
24. Serjilo tafakkur durdonalaridan. – T.: Navro'z, 2003. – 320 b.
25. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil hayot (Obihayot tomchilari). – T.: Abu Ali ibn Sino, 2004. – 536 b.
26. Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar. – T.: Adolat, 2004. – 385 b.
27. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. – T.: Yangi asr avlodi, 2007. – 372 b.

Qobiljon ZOHIDOV

Yangi asr universiteti dotsent, tarix fanlari doktori

O'RTA ASR ADABIYOTIDA ISLOM TARIXI MAVZUSI TAHLILI

*Maqolada O'рта asr adabiyotida islom tarixi mavzusining yoritilishi, ayniqsa, mualliflarning diniy, siyosiy va mafkuraviy qarashlari asosida tarixiy asarlarning shakllanishi haqida ma'lumotlar berilgan. Xalifa ibn Xayyot, Ya'qubiy, Tabariy, Ibn Asir, Suyuti kabi mashhur tarixchilarning asarlari asosida ularning islom tarixini aks ettirishi, mavjud manbalar bilan ishlash uslubi, tarixiy voqealarga yondashuvi va boshqa shunga o'xshash masalalar tahlil qilingan. **Tayanch so'zlar:** islom tarixi, tarixiy manbalar, tarixchilar, siyra, tabaqot, mag'oziy, tarixiy tadqiqot uslubi.*

*The article examines how the theme of Islamic history is portrayed in medieval literature, particularly focusing on how historical works were shaped by the religious, political, and ideological views of their authors. Based on the works of renowned historians such as Khalifa ibn Khayyat, Ya'qubi, Tabari, Ibn al-Athir, and al-Suyuti, the study analyzes their approaches to presenting Islamic history, their methods of working with sources, their perspectives on historical events, and related issues. **Keywords:** islamic history, historical sources, historians, sira, tabaqot, maghazi, methodology of historical research.*

*В статье рассматривается освещение темы истории ислама в средневековой литературе, в особенности формирование исторических произведений под влиянием религиозных, политических и идеологических взглядов авторов. На основе трудов таких известных историков, как Халифа ибн Хайят, Якубий, Табари, Ибн Асир и Суьути, проводится анализ их подхода к отражению истории ислама, методов работы с источниками, а также их отношения к историческим событиям и другим сопутствующим вопросам. **Ключевые слова:** история ислама, исторические источники, историки, сира, табакат, магази, методология исторических исследований.*

Kirish. Islomning Arabiston yarimorolidan tashqariga tarqalishi natijasida uning tarixi va mohiyatini aniq yoritib berishga bo'lgan harakat kuchaydi. Mualliflarning u yoki bu diniy oqimga mansubligi, uning aholi qatlamidagi mavqeyi muhim o'rin tutdi. Islom dinining tarqalishi bilan zamondosh bo'lgan mualliflarning asarlarida o'sha davrning o'ziga xos jihatlari aks etdi. Jumladan, shialik va xorijiylikning kuchayishi, Abbosiylar davridagi mihna voqealari, islomdagi g'oyaviy bo'linishlar asarlarning asosiy mavzusiga aylandi. Ushbu kayfiyat islom tarixi bo'yicha ta'lif etilgan asarlarda ham o'z aksini topdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, O'рта asrlarda bitilgan tarixiy asarlarda keskin kayfiyat sezilib turadi.

Shu bilan birga, islom tarixi yoki shaxslar tarixi bilan bog'liq asarlar ko'paysa-da, ularning obyektivligi shubha ostida qoldi. Sultonlar, qozilar va shu kabi zodagonlarning buyurtmalari bilan yoki ularga tilyog'lamalilik qilish maqsadida ham kitoblar yozila boshladi. Shunday ekan, kelgusi tadqiqotlar uchun O'рта asr mualliflari va ularning asarlarini hamda ularning qaysi diniy, siyosiy va mafkuraviy rag'bat yoki tazyiqlar ostida yozilganini bilish muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotga jalb etilgan adabiyotlarni tahlil etishda asarlarning haqqoniyligi, mualliflarning diniy-siyosiy dunyoqarashiga alohida e'tibor qaratilib, tasniflab chiqildi. Tadqiqotga jalb etilgan adabiyotlarning aksariyatini tarixiy asarlar tashkil etadi. Shunday asar mualliflaridan biri Xalifa ibn Xayyot (160/777-

240/855) bo'lib, uning “Tarix” va “Tabaqot” nomli asarlari bizgacha yetib kelgan. Uning hayoti va ilmiy faoliyati haqida ma'lumotlar yetarli emas. U Iroqning Basra shahrida tug'ilib, shu yerda ijod qilgan. Ma'lumki, Basra hijriy III asrda islomning ilm-fan va madaniyat markazi bo'lib, u yerda xususan, arab tili, hadis, siyra va tarix kabi sohalar mukammal o'rganilgan. Shu bois u Basradan boshqa joyga ko'chib o'tmagan. Xatib Bag'dodiyning “Tarix” asarida Ibn Xayyotning ismi zikr qilinmaganiga qaraganda u Bag'dodda yashamagan. Uning ilmiy biografiyasi ancha boy bo'lib, ilm bilan shug'ullanuvchi oilada katta bo'lgan. Uning bobosi Imom Buxoriyning ishonchli hadis roviylari ro'yxatidan o'rin olgan. U Yazid ibn Zari' (vaf.182/798) kabi ulamolardan ta'lim olgan. Xalifa ibn Xayyotning o'zi ham hadislar rivoyat qilgan va ularning yettitasi Imom Buxoriyning hadislar to'plamiga kiritilgan. Agar Imom Buxoriy Xalifa ibn Xayyot rivoyat qilgan hadislarini o'z asariga kiritgan ekan, demak, u taqdim etgan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi yuqoriligiga shubha yo'q.

Xalifa ibn Xayyot “Tarix” asarida o'zigacha yetib kelgan manbalardan unumli foydalangan va uni yozishda ma'lumotlarni alohida tartiblash tamoyiliga amal qilgan. Bunday yondashuv avvalgi mualliflar ishlarida uchramaydi. U asarda urushlarda vafot etgan shaxslar ro'yxatini keltiradi va tarixiy joy nomlarini batafsil tasniflaydi. Shuningdek, hijriy yil hisobi bo'yicha xronologik ketma-ketlik tartibida voqea-hodisalarni ochib beradi. Xalifalar davrida “omil”, “voliy”, “qozi” kabi





Batafsil BUKHARI.UZ saytida

Jazoir Islom fanlari va sivilizat-siyasi tadqiqotlari markazi rahbari Dr. Ahmad Sag'ir taklifiga binoan ayni kunlarda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori Shovosil Ziyodov va katta ilmiy xodim Shukurillo Umarov mamlakatimiz delegatsiyasi tarkibida Jazoir Xalq Demokratik Respublikasida ilmiy safarda bo'ldi.

2025-YIL UCHUN JURNALIMIZGA OBUNA BO'LING!

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro
ilmiy-tadqiqot markazi rekvizitlari:
O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi
H/r: 23402000300100001010
INN (STIR): 201122919 MFO: 00014
Markaziy bankning Toshkent shahar XXKM
SHHV: 400110860182247015100253001
INN (STIR): 207265166
Murojaat uchun telefon: (0366) 240 2019



Obuna
indeksi –
№ 946, 947
Bir yillik
obuna narxi –
360 000
so'm



MANZILIMIZ:

141306, Samarqand viloyati,
Payariq tumani, Xo'ja Ismoil shaharchasi.

E-mail: buxoriysaboqlari@bukhari.uz
Web-sahifa: www.bukhari.uz
Telefonlar:
(0366) 240-2019, (0366) 240-2011,
(+99899) 735-02-85

Bosishga 25.06.2024 yilda ruxsat berildi.
Qog'oz bichimi – 60x84 1/8.
Ofset bosma usulida bosildi.
Bosma tabog'i – 10. Adadi – 150.
Buyurtma № 14/12.
Nashr indeksleri – № 946, № 947.
ISSN 2181-4791

Jurnal 2019-yil 8-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№ 0057 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Tahrir hay'atining fikri muallif fikridan farq qilishi mumkin.


Jurnal andazasi tahririyatning kompyuter bo'limida
tayyorlandi.

Jurnal «SHABNAM SUPER PRINT» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Samarqand shahri, Ziyokorlar ko'chasi, 1-uy.
Tel.: (+99890) 104-13-33.

DUNYODA ILMDAN BOSHQA NAJOT YO‘Q VA HECH QACHON BO‘LMAGAY.

Imom Buxoriy



Telegram: @bukhariuz | @buxoriysaboqlari



E-mail: buxoriysaboqlari@bukhari.uz